

MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING 2022-YILNING I YARIM YILLIGIDAGI IJROSI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-99-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek 2022-yilda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida kombinat tomonidan jami **157** ta loyiha bo‘yicha **514,8** mlrd.so‘mlik, shu jumladan **104** ta yangi va kengaytirilgan loyihalar bo‘yicha **344,1** mlrd.so‘mlik mahalliyashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

2022-yilgi mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha tasdiqlangan jadvalga muvofiq, 2022-yilning I yarim yilligida **140** ta (jadval bo‘yicha 138 ta) loyiha bo‘yicha **282,6** mlrd.so‘mlik yoki davr prognozining **101,9%**ga mahsulotlar ishlab chiqarildi, 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati **123,4%**ni tashkil etdi. Shu jumladan, **90** ta yangi va kengaytiriladigan loyihalar bo‘yicha EKG ekskavatorlari uchun ehtiyot qismlar, markazdan qochma yanchish mashinasi korpusi, gidravlik ekskavatorlari uchun ehtiyot qismlar, yuklash va yetkazib berish mashinasi uchun ehtiyot qismlar va metallga ishlov beruvchi dastgohlar kabi umumiy qiymati **189,5** mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.